


I S T E ' M O L B O Z O R I

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 %ga oshdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,3 %ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 145,9 %ga o'sdi.


2018 yil yanvar –iyul oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shaxri (8,3 %ga), Andijon tumani (4,7 %ga), Baliqchi tumani (3,7 %ga), Shaxrihon tumani (3,1 %ga) va Honobod shaxrida (2,7 %ga), nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Izboskan (0,1 %ga), Ho'jaobod (0,4 %ga) va Oltinko'l (0,4 %ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (30,2 %), Shaxrixon (15,1 %), Asaka (10,1 %), Qo'rg'ontepa (7,7 %) va Andijon (5,5 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2,1 % ga oshib, 1806,3 ming soʻmni tashkil etdi (2017 yil yanvar – iyul oylarida 1444,0 ming soʻmni tashkil qilgan edi). Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Andijon shahri (2933,5 ming soʻm), Shaxrixon tumani (2316,3 ming soʻm) va Qoʻrgʻontepa tumanida (1662,5 ming soʻm) kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 65,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 2,3 %ga oʻsdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,2 %ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi		
	Ming soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha:	1806,3	102,1
Andijon sh	3839,9	106,8
Honobod sh	1172,0	101,5
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	1191,3	102,7
Asaka	1750,1	99,4
Baliqchi	1205,3	102,0
Boʻz	913,8	99,4
Buloqboshi	1203,5	100,2
Jalaquduq	1207,3	100,5
Izboskan	1154,6	98,3
Ulugʻnor	921,6	100,1
Marhamat	939,4	99,5
Oltinkoʻl	978,8	98,6
Pahtaobod	1294,1	99,7
Hoʻjaobod	1064,9	98,9
Shaxrixon	2874,8	101,3
Qoʻrgʻontepa	2027,7	99,5

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 76,3 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 3229,9 mlrd.so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 59,2% ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Ho'jaobod tumanida 92,8 %, Bo'z tumanida 86,5 %, Jalaquduq tumanida 86,2 %, Buloqboshi tumanida 84,6 %, Qo'rg'ontepa tumanida 84.6 % va eng past ulush Andijon shahrida 61,6 %, Andijon tumanida 78,2 % qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-iyul oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1023,0 mlrd. so`mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 111,0 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi tumanlarning o'sish sur'atida kamayish kuzatildi: Izboskan – 77,9 %, Shaxrixon – 87,0 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 15,2% ga o'sdi va 602,0 mlrd. so'mga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 58,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)

